

## TO‘QILGAN VA TRIKOTAJ KIYIMLARNI ISHLAB CHIQRILISHI VA RIVOJLANIB BORISHI

Sultanova Aziza Akmalovna

*Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan  
1-son kasb-hunar maktabi, Ishlab chiqarish ta’limi ustasi*

**Annotatsiya:** *Bugungi kunda to‘qilgan kiyimlarni kiyish va ishlab chiqarish jadal rivojlanmoqda, bu esa trikotaj kiyimlarning yangi moda va dizaynini yaratishga turtki bo‘lmoqda. Ushbu maqolada to‘qilgan trikotaj kiyimlarning paydo bo‘lishi, ishlab chiqarilishi va urfga aylanishi haqida mulohaza yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *kiyim, to‘qish, mato, moda, trikotaj, ip, ipak, ishlab chiqarish, modellashtirish, zamonaviy, buyum, mahsulot.*

Bugungi kunda respublikamizda to‘qimachilik va yengil sanoat rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratib berishga qodir tabiiy xomashyo resurslari mavjud. Ushbu resurslardan foydalanib ip, ipak va trikotaj matolardan yuqori sifatli va raqobatbardosh to‘quv va trikotaj buyumlarini ishlab chiqarish davlatimiz iqtisodiyotining yetakchi yo‘nalishlaridan biridir.

To‘quvchilikning rivojlanishini o‘rta asrlarning ikkinchi yarmidan kuzatish mumkin. XV—XVII asrlarda kapitalistik ishlab chiqarishning keskin rivojlanishi boshlanadi. XV asrning oxiridan boshlab to‘quv buyumlarining ilk namunalari paypoq va qo‘lqoplar to‘qila boshlandi. 1798-yil Fransiyada birinchi aylana trikotaj mashinasi ixtiro etilgan. Shu davrdan boshlab qo‘lda to‘qilgan buyumlar bilan bir qatorda to‘quv mashinasida to‘qilgan buyumlar ham qo‘llanib kelinmoqda. Qo‘lda turli sviterlar, yoping‘ichlar, bolalar jemferlari va hokazolar to‘qilgan.

Kiyimdagi nafislikka naqshlar xilma-xilligi, tola ranglari bilan erishilgan. Qo‘l bilan to‘qish vaqtida buyum tayyor shaklda paypoq, qo‘lqop yoki uning alohida qismlari (kiyimning old va ort bo‘laklari, yenglari) to‘qilgan. Keyinchalik trikotaj mashinalar takomillashishi natijasida metrajli trikotaj matolar va aylana matolar to‘qilgan.

Dastlab to‘quv buyumlari assortimenti paypoqlar, qo‘lqoplar, bosh kiyimlari bilan cheklangan, keyinchalik sport kiyimlari ham ishlab chiqarila boshlangan. Keyingi bosqichda bu assortimentga ayollar, erkaklar va bolalar jiletleri, jemferlari, poliverlari qo‘shilgan. Trikotaj ishlab chiqarishning asosiy



xususiyatlari texnik taraqqiyotda to‘quv jihozlarining yuqori samaradorligi va turli tolalarga ishlov berishning keng imkoniyatlaridan iborat.

Trikotaj sanoati xodimlarining asosiy vazifalari buyumlar assortimentini kengaytirish va kiyim sifatini yaxshilashdan iborat. Bu maqsadga yangi turdagi trikotaj tolalarni ishlab chiqarishni kengaytirish, ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini takomillashtirish, zamonaviy estetik talablarga javob beradigan trikotaj buyumlarini loyihalashni va ko‘plab ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bilan erishish mumkin.

Trikotaj buyumlar tayyorlash texnologiyasi usullari bo‘yicha bichilgan, yarim muntazam va muntazam turlarga bo‘linadi. Yarim muntazam buyumlar cheti milksiz polotnolardan bichiladi. Bunday buyumlarning tana qismi ko‘pincha yaxlit bichilgan bo‘lib, faqat yoqa va yeng o‘mizlari o‘yiladi. Muntazam buyumlar detallari aniq belgilangan o‘lcham va shaklga mos qilib yaxlit to‘qiladi. Trikotaj buyumlarining

60 %i bichilgan buyumlar tashkil etadi.

Trikotaj buyumlarini kontsruksiyalash va modellashtirish jarayonida cho‘ziluvchanlik, kirishuvchanlik, qayishqoqlik va texnologik ishlov berishda ahamiyatli xususiyatlar e‘tiborga olinadi. Trikotaj buyumlarning konstruktiv yechimi polotnoning cho‘ziluvchanlik darajasi bilan bog‘liq. Trikotaj matolar cho‘ziluvchanlik va deformatsiyaga moyillik darajasi bo‘yicha hamda dastlabki xomashyo xususiyati hisobga olingan holda quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- kam cho‘ziluvchan trikotaj matolar;
- o‘rtacha cho‘ziluvchan trikotaj matolar;
- ko‘p cho‘ziluvchan trikotaj matolar.

Trikotaj buyumlarni konstruksiyalashda bu ma‘lumotlar asos qilib olinadi. Trikotaj matoning cho‘ziluvchanligini hisobga oladigan to‘kislik qo‘shimcha haqning qiymati standartlarda keltirilgan. Ko‘p cho‘ziluvchan trikotaj matolardan buyumni konstruksiyalashda qayishqoqlik tufayli kiyim tanaga yopishib turishi hisobiga olinadi. Trikotaj buyumlarni konstruksiyalash va modellashtirishda polotno turi va rangi kuchli badiiy ifodaga ega bo‘lgan buyumlarni yaratishga keng imkoniyat beradi. Yarim muntazam va muntazam kiyimlar alohida maxsus xususiyatga ega, ularning ostki detallariga ishlov berish talab etilmaydi. Ular mashinalardan ishlangan (tugallangan) holda tushadilar. Muntazam kiyimlarda yon choklari ham ishlangan bo‘ladi. Muntazam va yarim muntazam buyumlar bichilgan buyumlarga nisbatan muhim ustunlikka ega: ular tejamkor bo‘lib buyumga texnologik ishlov berish jarayonini ancha qisqartirishga olib keladi. Muntazam to‘qish usuli bilan cho‘ntak, yoqa, klapan, belbog‘ kabi detallar olinadi.



Aniq bir maqsadda u yoki bu to‘qilishni tanlashda (masalan, kam cho‘ziluvchanlik, bezatish effekti va boshqalar) to‘qima xususiyatlarini va xomashyoni to‘g‘ri tanlash muhim vazifa hisoblanadi.

Relyefli, ya‘ni bo‘rtib chiqqan rasmlarni yaratish uchun turli xil o‘tkazuvchanlik xususiyatiga ega tolalarni ishlatish kerak, ularni mohirona ishlatganda bo‘rtib chiqqan rasmlarni yaratish mumkin.

Kam egiluvchan tola va ko‘p qayishqoq tolaning qo‘shilishi matoga mustahkamlik bag‘ishlaydi. To‘qilishni loyihalashda matoning qanday fizik-mexanik va estetik xususiyatlarga ega bo‘lishligini aniq bilish kerak. Fizik-mexanik va estetik xususiyatlar orasida bog‘liqlik mavjud. Buni shundan bilish mumkinki, mustahkam trikotaj juda ko‘p qayishqoq trikotajdan o‘z tashqi ko‘rinishi bilan ajralib turadi. Shunday qilib, to‘qima turini tanlashda yoki yaratishda quyidagi aniq savolga javob berish kerak: to‘qilish qanday kiyimlar uchun mo‘ljallangan: (qishki, yozgi, ustki yoki ichki kiyimlar uchun, kattalar yoki bolalar kiyimi uchun)?

Zamonaviy kiyimlarni modellashtirishda milliy kiyim fakturasidan foydalanish mumkin, masalan, tukli, g‘adir-budur yuzali, ilmoqli, qalinlashgan tolalardan to‘qilgan trikotaj matolar shular jumlasidandir. Trikotajdan bo‘lgan mahsulotlar assortimenti doimo moda talabiga muvofiq o‘zgarib turadi. Bu o‘zgarish kiyimni tashkil etuvchi buyumlar soni, ularning turi va yangi assortiment paydo bo‘lishi hisobiga kechadi.

Ommaviy tarzda mahsulot ishlab chiqarish deganda bir turli buyumlarni ko‘p miqdorda ishlab chiqarish tushuniladi. Ushbu ishlab chiqarishda mehnat unumdorligi va barcha jihozlarning qo‘llanilishi hisobga olinadi. Seriyali ishlab chiqarishda buyumlar ketma-ket, navbati bilan ishlab chiqariladi, ishlab chiqariladigan mahsulot soni bir smenada 500 dan to 2000 (ko‘p seriyali)gacha yoki 300 dan 500 (kichik seriyali)

donagacha o‘zgaradi. Buyumlarni ommaviy va seriyali ishlab chiqarish maxsus jihozlangan korxonalarda amalga oshiriladi.

Ommaviy ishlab chiqarishda buyumlarni modellashtirish vaqtida umumiy ishlab chiqarish jarayonini shu bilan birga matolarni sarflanishi, mehnatni maksimal mexanizatsiyalashning texnologik jarayonini alohida operatsiyalarga bo‘lish zarur. Buyumlarni loyihalash jarayoni deganda, model yaratishdan, ya‘ni eskiz ishlab chiqarish andazalarini tayyorlashdan to birinchi namunani tayyorlashgacha bo‘lgan jarayon tushuniladi.

Trikotaj buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish jarayonida cho‘ziluvchanlik, kirishuvchanlik, egiluvchanlik hamda texnologik ishlov berishda ahamiyatli xususiyatlar e‘tiborga olinadi. Trikotaj buyumlarining



konstruktiv va texnologik yechimi polotnning cho‘ziluvchanlik darajasi bilan bog‘liqdir. Trikotaj polotnlar cho‘ziluvchanlik va deformatsiyaga moyillik darajasi bo‘yicha hamda dastlabki xomashyo xususiyati hisobga olingan holda guruhlarga tasniflanadi. Trikotaj buyumlar loyihalashda va texnologiyasini ishlab chiqishda polotnlar xilining va ranglarining ko‘pligi kuchli, badiiy ifodaga ega bo‘lgan buyumlarni yaratishga keng imkoniyat beradi. Bitta modelda har xil polotnolarni ishlatib, estetik jihatdan ifodali natijaga erishish mumkin.

Model yaratishda polotnning ko‘rinishi, tuzilishi, xususiyatlari va buyumning vazifasi hisobga olinadi. Trikotaj buyumlarda to‘g‘ri, yopishgan va trapetsiyasimon kengaytirilgan siluetlar keng tarqalgan. Hozirgi paytda, trikotaj buyumlar assortimenti uchun, umumiy to‘kislik qiymati amaliy tajribalar asosida aniqlangan. Moda yo‘nalishiga mos holda jemperlarni uchun  $P = 1-4$  sm; jaketlar uchun  $2-5$ ; kurtkalar uchun  $4-6$  sm. Oson cho‘ziladigan polotnodan ichki kiyimlar to‘kislik qo‘shimchasi  $0$  ga teng olinadi yoki manfiy son bo‘lishi ham mumkin, chunki ekspluatatsiya davrida buyum detallarining kerakli darajada kengayishi polotno cho‘zilishi orqali ta‘minlanadi. Konstruktsiya uchastkalari aro quyidagicha taqsimlanadigan umumiy qo‘shimchaning ko‘proq qismi ( $50-55\%$ ) o‘miz kengligiga,  $25-30\%$  esa moda yo‘nalishiga mos holda orqa va old bo‘laklar kengligiga ajratiladi. Trikotaj matosining rangi, tasviri, kompozitsiyasi va koloriti moda talabiga javob berishi kerak.

Modaning juda ko‘p turlari mavjud, lekin ularning hammasi asosan modaning o‘zgaruvchanligi, ayrim davrga xos bo‘lgan xislatlarni aks ettiradi va o‘sha jamiyatning moda borasidagi yo‘nalishlarini baholaydi. Moda o‘zgaruvchanligi progressiv hodisa bo‘lib, jamiyatda insonlarning doimiy ravishda o‘zgarayotgan talablariga bog‘liq. Insonlarning shakllarni yangilash, estetik didini o‘stirishga ehtiyoji jamiyatning rivojlanishiga ham bog‘liq. Texnologik progress moda rivojlanishini tezlashtiradi. Agar ilgari moda o‘zgarishi davrlari asrlar bilan o‘lchangan bo‘lsa, hozir bu davrlar yillar, mavsumlar bo‘yicha o‘zgaradi.

Pishiq to‘qilgan trikotaj turli rangdagi iplarning qo‘shilishi natijasida hosil bo‘ladi. Trikotajni eni bo‘ylab bir qatorida joylashgan halqalar gorizontial halqalar qatorini, vertikal bo‘yicha biri ikkinchisiga ilashib joylashgan halqalar vertikal halqalar ustunchalarini tashkil qiladi.

XXI asr to‘quv-trikotaj buyumlar davriga aylandi. Erkaklar, ayollar va bolalar bosh kiyimidan tortib oyoq kiyimigacha, har qanday yoshdagi insonlar



ehtiyojidagi (ich kiyimlar, yengil kiyimlar, ust kiyimlar, bosh kiyimlar, qo‘lqop-u paypoqlar va h.k.) uy

garderobidan katta joy egalladi.

Hozirgi kunda to‘quvchilik yo‘nalishida imkoniyati cheklangan shaxslar ham qo‘l mehnati orqali o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar. Davlatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchi yoshlar Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan 1-son kasb-hunar maktabida to‘quvchilik yo‘nalishida tahsil olmoqdalar. Qo‘lda to‘qish sir-sinoatlarini qo‘l sezgilari orqali o‘rganib bolalar, ayollar, erkaklar kiyimlarini, qolaversa har hil buyumlarni, yumshoq o‘yinchoqlarni ham o‘z qo‘l mehnatlari orqali to‘qib, o‘zgacha zavq olib o‘zlarini qobiliyatlarini namoyon etmoqdalar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Pulatova S.U. Trikotaj kiyimlarini konstruksiyalash va modellashtirish. T., Turon- Iqbol, 2006 y.
2. Н.А.Архангел'ский и др. Технология трикотажно-швейного производства, Гостехиздат, 1963 г.
3. X.X.Kamilova N. K. Hamrayeva "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash". Toshkent "Cho‘lpon" 2011.
4. M. Jabborova. "Tikuvchilik texnologiyasi" Toshkent. "O‘qituvchi" 1989
5. Ramazonova M.K., Tashpulatov S.Sh. Kiyimni modellashtirish va badiiy bezash. Toshkent, 2010.

